



“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DAGI
KO‘PMA’NOLILIK

Olimova Muxlisa Parmon qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

olimovamuxlisa556@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi omonimlar masalasiga to‘xtalib, ularga yondosh ko‘p ma’nodlilik masalasi o‘rganiladi. XI asrda bu hodisa yo‘qligi, keyinchalik omonimlar o‘rtasidagi aloqa yo‘qolishi natijasida ko‘p ma’nodlilik yuzaga kelishi hodisasi aytib o‘tilar ekan, devondagi ko‘pma’noli hisoblanadigan so‘zlarga misol keltirilgan.

Kalit so‘zlar: devon, polisemiya, omonim, semasiologik kategoriya.

Annotation. This article focuses on the issue of homonyms in "Devonu Lug'oti-t-Turk" and examines the issue of polysemy associated with them. The absence of this phenomenon in the 11th century, and later the occurrence of polysemy as a result of the loss of connection between homonyms, is mentioned, and an example of polysemous words in Devon is given.

Key words: devon, polysemy, homonym, semasiological category.

Tilshunoslik rang-barang leksik, grammatik, fonetik shakllardan iborat. Bu rang-baranglilik tilimizdagi so‘zlar miqdori, turfa o‘ynoqilikni yuzaga chiqaradigan shakllar mavjudligi, barqaror ifodalar ta’sirchanligi, bir shaklning bir necha ma’nolar voqelantirishida namoyon bo‘ladi. Tilimizning boy ichki imkoniyatlaridan biri omonimlik hisoblanadi. Omonim so‘zlar – umumiy ma’no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvur jihatdan bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil talaffuz etiladigan so‘zlardir. Ular orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Ikki yoki undan ortiq so‘zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. Koshg‘ariy omonimlarga oid materiallarni to‘plabgina qolmasdan, ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o‘tgan. Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” asarida

o't so'zining o'simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to'rt xil ma'noda ishlatilishini ko'rsatib o'tgan. Asarda uchrovchi omonim so'zlardan bir qanchasini

1. Uč (uch) – narsaning uchi; **butaq uči** – butoqning uchi, shoxning uchi.

[**Uč (uch)**] **Uč el** – chegara, el, mamlakat chegarasidagi viloyat.

Uč (uch) – biron narsaning tugallanishi, bitishi (og'uzcha). **Boyda nä uč bar**, deydilar. Ma'nosi: "Xalq shu qadar ko'pki, unda tugash yo'q".

2. Er (er) – teshish uskunasi.

Er (er) – yer; ba'zi tillarda yer ham deyiladi.

3. Üz (uz) – (ingichka talaffuz etiladigan unli [ya'ni, ü] bilan): **yog' üzlüg aš** – yog'li osh, yog'li ovqat.

Üz (uz) – sag'ir; **üz kiši** – sag'ir kishi.

4. Öz (o'z) – dara, tog'lardagi vodiy; **buni tağ özi** (tog' darasi) ham deydilar.

[**Öz (o'z)**] **öz kiši** – yaqin odam; **bu bizniğ öz kiši-ol** – bu bizning yaqin kishimiz.

Öz (o'z) – daraxtning o'zagi; **yığaç özi** deydilarki, "xurmo va boshqa daraxtlarning yog'I" demakdir.

[**Öz (o'z)**] **öz qonuqi** – gavda ichida harakat qiladigan narsa, ruh. (Shoir) shunday degan:

Bardī közüm yaruqī,

Aldī özüm qonuqī.

Qanda erinč qanıqī,

Emdi udin uđgurur.

Aytmoqdaki: Ko'zimning nuri ketdi, mening ruhimni ham olib ket. U hozir qayerda ekan? Endi meni uqudan uyg'otadi [Ko'zimning orachig'i (suyuklihim) ketdi. U mening ruhimni am o'zi bilan olib ketdi. Endi u qayerda ekan? Uning yo'qligi uchun uyqum halovatsiz, uyquga yo'l bermaydi).

O'rtadagi farqni tushunish uchun omonimlar masalasi hozirgi tilshunosligimizda polisemiya bilan yonma-yon o'rganiladi. Polisemiya semasiologik kategoriya sifatida bir til birligi shaklida ifodalangan turli

ma'nolarning ichki, o'zaro bog'langan semantik munosabatidir. Tilning qaysi sathiga aloqador bo'lishidan qat'iy nazar polisemiya obyektiv qonuniyatlar ta'sirida paydo bo'ladi. T. Aliqulov polisemiya tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligini, shuning uchun ham uning tildagi o'rnini belgilash, tarixiy rivojlanish etaplarini kuzatib, qay usullar bilan vujudga kelish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Mazkur maqolada

“Devonu lug‘otit turk”da qo‘llangan ko‘pma‘noli leksemalarni o‘rganish bu hodisaning tarixiy asoslarini belgilash imkonini beradi. Asardagi polisemantikasi keltirib uslubiy-semantik jihatdan tahlil qilish asnosida XI asrdagi eski turkiy tilda qo‘llangan leksemalarda yuz bergan ma‘no o‘zgarishlari yangi ma‘no hosil qilishning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, enantiosemiya singari usullari zaminida voqelanganiga guvoh bo‘lamiz. Quyida devonda uchraydigan ko‘p ma‘nolilikka guvoh bo‘lamiz:

1. **Eđiz (ediz)** – baland yer va boshqa baland narsalar.

[**Eđiz (ediz)**] **eđiz tađ** – baland tog‘ yoki oshib o‘tish mumkin bo‘lmagan tog‘.

2. **Ađiz (ag‘iz)** – ariq og‘zi; vharid idish yoki qovg‘aning og‘zi; xum og‘zi, quduq og‘zi.

Ađiz (ađiz) – odam va hayvonlar og‘zi

3. [**Bošudi (bo‘shudi)**] **aniđ özi bošudi** – uning ichi bo‘shaldi, ravonlashdi.

[**Bošudi (bo‘shudi)**] **tügün bošudi** – tugun bo‘shabroq qoldi, bo‘shadi.

4. [**Tišädi (tishadi)**] **ol orđaq tišädi** – u o‘roqni o‘tkirladi (tišär, tišämäk).

[**Tišädi (tishadi)** – **qayradi**] **tegirmän tišädi** – tegirmon toshini qayrab o‘tkiz qildi.

5. [**Qamadi (qamadi)**] **köz qamadi** – quyosh qamashdi (qamar, qamamaq).

[**Qamadi (qamadi)**] **aniđ tiši qamadi** – nordon, qimizak bir narsa yeyishdan uning tishi qamashdi.

6. [**Čoqradi (cho‘qradi)** – **qaynadi**] **ešič čoqradi** – bo‘tqa kabi quyuq narsadan qozon qaynadi. Suyuq taomning qaynashiga bu so‘z qo‘lanmaydi, bu ma'noda qaynadi so‘zi qo‘llanadi.

[Čoqradi (cho'qradi)] miňar čoqradi – buloq suvi qozon qaynaganday qaynadi (čoqrar, čoqramaq).

7. [Suwladī (suwladī) – suv ichdi] at suwladī – ot va boshqa hayvonlar suv ichdi.

[Suwladī (suwladī) – suv qo'ydi] er titik suwladī – kishi loy va boshqa narsalarga suv qo'ydi.

8. [Kišnādi (kishnadi) – kishnadi] at kišnādi – ot kishnadi.

[Kišnādi (kishnadi)] qatir kišnādi – xachir hangradi (kišnār, kišnāmāk).

9. [Yastadi (yastadi)] ol anar yastuq yastadi – u unga yastanish uchun yostiqtashladi.

[Yastadi (yastadi)] ol menā söz yastadi – u menga kinoya bilan so'z tashladi (yastar, yastamaq).

Devon tilidagi aksar polisemantik so'zlarning ma'nolari bugun ham saqlangan. Ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanishi, ba'zida Mahmud Koshg'ariy yashagan davr tili bilan bugungi tilimizning o'xshash jihatlarini aks ettirsa, ba'zida eski turkiy tilda qo'llangan ayrim so'zlarning hozirgi ma'nosi toraygan yoki kengaygani, ayrim leksemalarning iste'moldan chiqqaniga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019

2. Raxmatullayev Sh. Omonimlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984

3. Raxmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonimiya va omonomiklik). – Toshkent, 1966.

4. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк) – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2016